



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	



MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR



Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi yetakchi mutaxassisi, mustaqil tadqiqotchi (PhD).
ORCID: 0009-0003-5768-9099

Annotatsiya. Maqolada monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimining nazariy-uslubiy asoslari, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekiston amaliyoti qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida monopol tuzilmalarning vujudga kelish sabablari, ularning iqtisodiy oqibatlarini hamda raqobat muhitini rivojlantirish orqali bozor samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: monopoliya, monopoliyaga qarshi boshqaruv, raqobat muhiti, raqobat siyosati, bozor konsentratsiyasi, ustun mavqe, tabiiy monopoliyalar, institutsional islohotlar, xorijiy tajriba, milliy amaliyot, iqtisodiy samaradorlik, bozor barqarorligi.

Abstract. The article provides a comparative analysis of the theoretical and methodological foundations of antitrust governance, the experience of developed foreign countries, and the practice of Uzbekistan. The study scientifically substantiates the causes of the emergence of monopolistic structures, their economic consequences, as well as the ways to enhance market efficiency through the development of a competitive environment.

Key words: monopoly, antitrust governance, competitive environment, competition policy, market concentration, dominant position, natural monopolies, institutional reforms, foreign experience, national practice, economic efficiency, market stability.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ теоретико-методологических основ антимонопольного управления, опыта развитых зарубежных стран и практики Узбекистана. В рамках исследования научно обосновываются причины возникновения монопольных структур, их экономические последствия, а также направления повышения эффективности рынка за счёт развития конкурентной среды.

Ключевые слова: монополия, антимонопольное управление, конкурентная среда, конкурентная политика, концентрация рынка, доминирующее положение, естественные монополии, институциональные реформы, зарубежный опыт, национальная практика, экономическая эффективность, стабильность рынка.

KIRISH

Monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini rivojlantirish bugungi globalashuv sharoitida bozor iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Raqobat muhitining cheklanishi, monopol mavqening suiiste'mol qilinishi hamda bozor konsentratsiyasining ortishi iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga, innovatsion jarayonlarning sekinlashuviga va iste'molchilar manfaatlarining buzilishiga olib kelishi



mumkin. Shu bois monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi raqobat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo'lib, u mustaqil regulyatorlar faoliyati, aniq huquqiy mexanizmlar hamda bozor monitoringi orqali amalga oshiriladi. Xorijiy tajribada raqobatni himoya qilish, bozorlarda teng sharoitlarni ta'minlash va monopol xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan samarali institutsional yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu tajribalarni tahlil qilish monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Milliy iqtisodiyot sharoitida esa monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning izchilligi hamda raqobat muhitini kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Xorijiy tajribani bevosita ko'chirib olish emas, balki uni milliy iqtisodiyotning institutsional xususiyatlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini rivojlantirishda xorijiy tajriba va milliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Monopoliya tushunchasi iqtisodiy nazariyada bozor tuzilmasining muhim shakllaridan biri sifatida qaraladi. U, odatda, muayyan tovar yoki xizmat bozorida yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining hukmron mavqega ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Monopoliyaning mavjudligi narx shakllanishi, ishlab chiqarish hajmi hamda resurslardan foydalanish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, raqobat muhitining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli monopoliyani ilmiy jihatdan o'rganish va unga nisbatan davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda monopoliyaga berilgan ta'riflar turli nazariy yondashuvlar asosida shakllangan. Jumladan, A. Marshall monopoliyani bozorda taklif ustidan to'liq nazoratni qo'lga kiritgan subyekt faoliyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, monopolist raqobatchilarning yo'qligi sharoitida narxni belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi va bu holat bozor muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin [1].

J. Robinson monopoliyani bozor hokimiyatining eng yuqori darajasi sifatida baholab, uni narx va ishlab chiqarish hajmini mustaqil belgilash imkoniyati bilan izohlaydi. Olim monopoliyani nafaqat yagona ishlab chiqaruvchi mavjudligi, balki potensial raqobatchilar uchun bozorga kirish to'siqlarining yuqoriligi bilan ham bog'laydi [2]. Bu yondashuv monopoliyaning institutsional va huquqiy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

P. Samuelson va V. Nordhaus monopoliyani muayyan bozorda o'rnini bosuvchi tovarlar mavjud bo'lmagan sharoitda yagona sotuvchining hukmronligi sifatida ta'riflaydi [3]. Ularning fikricha, monopol bozor sharoitida narxlar ko'pincha ijtimoiy optimal darajadan yuqori bo'lib, bu resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. Ushbu yondashuv monopoliyaning ijtimoiy farovonlikka ta'sirini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

M. Porter esa monopoliyani raqobat kuchlari nazariyasi doirasida ko'rib chiqib, uni bozor kuchlarining nomutanosibligi natijasi sifatida izohlaydi [4]. U monopol mavqening shakllanishida tarmoqqa kirish to'siqlari, yetkazib beruvchilar hamda iste'molchilar ta'siri muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv monopoliyani strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbek olimlari tadqiqotlarida ham monopoliyaga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, S. G'ulomov monopoliyani muayyan tovar bozorida raqobatning cheklanishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy holat sifatida ta'riflab, uning asosiy salbiy oqibati sifatida narxlarning sun'iy oshirilishini ko'rsatadi [5]. Olim monopoliyaga qarshi siyosatni bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim sharti sifatida baholaydi.

Shuningdek, A. Vahobov va Sh. Shoha'zamiyovlar monopoliyani davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan bozor tuzilmasi sifatida talqin qilib, monopoliyaga qarshi boshqaruvning institutsional asoslarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, monopoliyani cheklash orqali sog'lom raqobat muhiti shakllanadi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi [6]. Mazkur qarashlar milliy iqtisodiy sharoitda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash hamda boshqa umumilmiy uslublaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Monopoliya bozor tuzilmasining alohida shakli bo'lib, muayyan tovar yoki xizmat bozorida bitta xo'jalik yurituvchi subyektning ustun mavqega ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda bozor mexanizmlarining tabiiy ishlashi cheklanib, narx shakllanishi va ishlab chiqarish hajmi asosan monopol subyekt manfaatlari



doirasida belgilanadi. Monopol holatning uzoq muddat saqlanib qolishi raqobat muhitining zaiflashuviga olib kelib, iqtisodiy tizimda muvozanatli rivojlanish jarayonlarini sekinlashtiradi. Shu bois monopoliyani ilmiy jihatdan tahlil qilish va unga qarshi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Monopoliyaning vujudga kelishi turli iqtisodiy va institutsional omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning asosiylari sifatida bozorga kirish to'siqlarining yuqoriligi, kapital sig'imi katta bo'lgan tarmoqlarda miqyos samaradorligining ustunligi hamda davlat tomonidan tartibga solishning yetarli darajada takomillashmaganligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ayrim hollarda texnologik ustunlik, infratuzilma resurslariga eksklyuziv egalik yoki normativ-huquqiy imtiyozlar monopol mavqening shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu omillar raqobatchilar uchun teng sharoitlarning buzilishiga olib kelib, bozorda sog'lom raqobatning rivojlanishini cheklaydi.

Monopoliyaning mavjudligi iqtisodiy jarayonlarga bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, monopol subyektlar tomonidan narxlarning sun'iy ravishda yuqori darajada belgilanishi iste'molchilar farovonligining pasayishiga, ishlab chiqarish hajmining ijtimoiy optimal darajadan chetga chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, raqobat bosimining yo'qligi innovatsion faollikning susayishiga, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga bo'lgan rag'batlarning zaiflashishiga olib keladi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi pasayib, iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashadi.

Monopoliyaning uzoq muddatli oqibatlari iqtisodiyotning institutsional rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Monopol mavqening mustahkamlanishi bozorga kirishdagi sun'iy to'siqlarning saqlanib qolishiga, ma'muriy resurslardan foydalanish holatlarining kuchayishiga va bozor shaffofligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda raqobat muhitini tiklash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini takomillashtirish, bozor institutlari faoliyatini kuchaytirish hamda raqobatni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Monopoliyaning iqtisodiy oqibatlari, avvalo, bozor mexanizmlarining buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Monopol mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlar narx va ishlab chiqarish hajmini raqobat sharoitidagi muvozanat darajasidan chetga chiqqan holda belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada narxlar ko'pincha ijtimoiy optimal darajadan yuqori shakllanib, ishlab chiqarish hajmi esa talabga nisbatan sun'iy ravishda cheklanadi. Bu holat iste'molchilar farovonligining pasayishiga, iste'mol ortiqchaligining monopol foydaga aylanishiga va iqtisodiy samaradorlikning yo'qotilishiga olib keladi. Iqtisodiy nazariyada ushbu jarayon "o'lik yuk yo'qotishlari" orqali izohlanadi [7].

Monopoliyaning yana bir muhim oqibati resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishidir. Raqobat bosimining mavjud emasligi sharoitida monopol korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va boshqaruvni takomillashtirishga yetarli darajada rag'bat sezmaydi. Bu esa ishlab chiqarishning ichki samarasizligiga, innovatsion faollikning susayishiga va iqtisodiyotda texnologik rivojlanish sur'atlarining sekinlashuviga sabab bo'ladi. Uzoq muddatli istiqbolda monopol tuzilmalarning ustunligi ilmiy-texnik taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Monopoliyaning makroiqtisodiy oqibatlari ham sezilarli bo'lib, u iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi va institutsional muhitning buzilishi bilan bog'liqdir. Monopol mavqening saqlanib qolishi bozorga kirishdagi sun'iy to'siqlarni kuchaytirib, yangi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini cheklaydi. Shu bilan birga, monopol tuzilmalar davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, normativ-huquqiy qarorlarning iqtisodiy samaradorlikdan ko'ra korporativ manfaatlarga xizmat qilishiga olib kelishi mumkin. Natijada iqtisodiy resurslar samarasiz taqsimlanadi, raqobat muhiti zaiflashadi va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslar yemiriladi.

So'nggi o'n yilliklarda monopol korxonalarning dinamikasi global iqtisodiyotda bir xil yo'nalishda kechmay, tarmoqlar va mamlakatlar kesimida farqlanib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda an'anaviy tabiiy monopoliyalar (energetika, temir yo'l, kommunal xizmatlar) nisbatan barqaror saqlanib qolgan bo'lsa-da, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi turdagi monopol va kvazimonopol tuzilmalar shakllanmoqda [7]. Ayniqsa, platforma iqtisodiyoti, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya bozorlarida konsentratsiya darajasining ortishi yirik korporatsiyalarning bozor ulushini keskin oshirdi. Shu bilan birga, antimonopoliya siyosatining kuchaytirilishi natijasida ayrim mamlakatlarda monopol mavqega ega korxonalar sonining rasmiy reyestrlarda qisqarishi kuzatilmoqda, biroq bu jarayon ko'pincha sifat jihatidan, ya'ni bozor kuchining shakli va ko'rinishi o'zgarishi orqali namoyon bo'lmoqda.

O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, jumladan, davlat ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda monopol korxonalar dinamikasi asosan institutsional islohotlar sur'ati bilan belgilanadi. Davlat mulkini xususilashtirish, bozorga kirishdagi to'siqlarni qisqartirish va raqobat siyosatini kuchaytirish natijasida ayrim tarmoqlarda monopol korxonalar soni kamayib borayotgan bo'lsa-da, strategik va infratuzilmaviy sohalarda ularning nisbatan barqaror saqlanib qolishi kuzatiladi. Shu bilan birga, ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik subyektlarining ochiq bozordagi ulushi kamaygan sari yashirin konsentratsiya va vertikal integratsiya shakllarining kuchayishi ehtimoli ortmoqda.



Bu holat monopol korxonalar dinamikasini faqat son jihatidan emas, balki bozor kuchi va ta'sir darajasi nuqtayi nazaridan ham kompleks tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida monopoliyaga qarshi boshqaruv ikki asosiy federal organ — Department of Justice (Antitrust Division) va Federal Trade Commission (FTC) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu tizim huquqiy jihatdan kuchli instrumentlarga (fuqaroviy va jinoiy jarimalar, sudga da'volar, birlashmalarni bloklash) ega bo'lib, raqamli platformalar, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash kabi sohalarda faol nazoratni amalga oshiradi. Shuningdek, adliya va iqtisodiy tahlil hamkorligiga asoslangan qarorlar qabul qilinadi.

Rossiyada monopoliyaga qarshi siyosat markaziy organ — Federal Antimonopoly Service (FAS) tomonidan boshqariladi. FAS hukumat organi sifatida narx nazorati, monopoliya holatlarini tekshirish, konsentratsiya va birlashmalarni monitoring qilish bilan shug'ullanadi. Rossiya modeli ko'pincha markazlashtirilgan nazorat va sektorlar bo'yicha keng huquqiy vositalarni qo'llash bilan ajralib turadi; bunda davlatning strategik korxonalardagi roli va tartibga solish mexanizmlari muhim omil hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada raqobatni himoya qilish va monopoliyaga qarshi tartibga solish masalalarini Competition and Markets Authority (CMA) hal qiladi. CMA mustaqil organ sifatida konsentratsiyalarni tahlil qilish, kartellarni aniqlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng vakolatlarga ega. Britaniya modeli iqtisodiy tahlilga, bozordagi samaradorlik ko'rsatkichlariga va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga katta urg'u beradi hamda M&A monitoringi faol hisoblanadi.

Italiyada monopoliyaga qarshi tartibga solish funksiyalarini Autorità Garante della Concorrenza e del Mercato (AGCM) amalga oshiradi. AGCM ichki bozorlarda raqobatni saqlab qolish, konsentratsiyani nazorat qilish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Italiya modeli Yevropa Ittifoqi qoidalar bilan uyg'un ishlaydi va milliy reglament hamda Yevropa Ittifoqi tartib-qoidalarini birgalikda qo'llash orqali nazoratni amalga oshiradi.

Fransiyada monopoliyaga qarshi siyosat mustaqil «Autorité de la concurrence» organi tomonidan amalga oshiriladi. U Yevropa qonunchiligi doirasida ichki bozorni monitoring qilish, kartellar va yuridik firibgarliklarni tekshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Fransiya modeli milliy va Yevropa darajasidagi instrumentlarni uyg'unlashtirish, shaffof tekshiruvlar va jazo choralarini qo'llashga asoslanadi.

Xitoyda monopoliyaga qarshi siyosat asosan State Administration for Market Regulation (SAMR) tomonidan amalga oshiriladi. So'nggi yillarda Xitoyda antimonopoliya qoidalarini kuchaytirish va raqamli iqtisodiyotdagi platformalarga nisbatan maxsus yo'riqnomalar (masalan, standard-essential patentlar va platforma integratsiyasi) joriy etildi. Nazorat kuchli sektorlar bo'yicha ham faol amalga oshirilmoqda.

Yaponiyada Fair Trade Commission (JFTC) antimonopoliya qonunchiligini ijro etuvchi asosiy organ bo'lib, u birlashmalarni nazorat qilish, kartellarga qarshi kurashish va bozordagi kuchlarning suiiste'molini cheklashga yo'naltirilgan. JFTC so'nggi yillarda raqamli platformalar va xalqaro M&A bitimlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, Yaponiya iqtisodiyotida demografik bosim va past o'sish sharoitida raqobat siyosatini milliy strategiya bilan uyg'un holda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini shakllantirish va rivojlantirish bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Mustaqillikdan keyingi davrda iqtisodiyotda davlat ulushining yuqoriligi va yirik xo'jalik subyektlarining ustun mavqei raqobat muhitining cheklangan holda rivojlanishiga sabab bo'lgan. Shu sharoitda monopoliyaga qarshi siyosat iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, bozorda teng sharoitlarni yaratish va monopol mavqeni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishga yo'naltirildi. Mazkur jarayonda huquqiy asoslarni mustahkamlash va maxsus vakolatli organlar faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Raqobatni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar, tovar va moliya bozorlarida davlat ishtirokini qisqartirish hamda tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish ushbu yo'nalishdagi muhim chora-tadbirlar hisoblanadi. Xususan, narxlarni shakllantirishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalar doirasini bosqichma-bosqich qisqartirish va bozorga kirishdagi ma'muriy to'siqlarni kamaytirish orqali raqobat muhiti kuchaytirilmoqda. Bu esa monopol tuzilmalarning iqtisodiy ta'sirini cheklashga xizmat qilmoqda.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat muhitining kengayishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni samaradorlikni oshirishga, innovatsion faoliyatni kuchaytirishga va mahsulot sifati bo'yicha xalqaro standartlarga moslashishga undaydi. Shu bilan birga, monopoliyaga qarshi boshqaruvning takomillashuvi iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish, narxlar barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Natijada milliy iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun mustahkam institutsional asos shakllanadi.



1-jadval. Monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimlarining qiyosiy tahlili

Davlat	Monopoliyaga qarshi boshqaruv modeli	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari	Monopol korxonalar soni (taxminiy)
AQSh	Mustaqil sud-huquqiy antitrust modeli (DOJ + FTC)	Kuchli sud amaliyoti, qat'iy jazolar, raqamli bozorlarda faol nazorat	Jarayonlarning uzoq davom etishi, siyosiy bosim ehtimoli	~200–300 yirik ustun mavqeli kompaniya
Rossiya	Markazlashgan davlat modeli (FAS)	Narx va bozor nazoratining keng qamrovi, tezkor aralashuv	Davlat ulushining yuqoriligi, raqobatning cheklanganligi	~3 000 dan ortiq (rasmii reyestrda)
Buyuk Britaniya	Iqtisodiy-tahliliy model (CMA)	Mustaqillik, chuqur iqtisodiy tahlil, M&A nazorati	Brexitdan keyingi institutsional moslashuv	~150–200
Italiya	YEI bilan uyg'unlashgan model (AGCM)	YEI qonunchiligi bilan integratsiya, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish	Byurokratik jarayonlar, qarorlar qabul qilishning sekinligi	~100–150
Fransiya	YEI markazlashgan modeli (Autorité de la concurrence)	Kuchli kartellarga qarshi siyosat, shaffoflik	Davlat ishtiroki yuqori bo'lgan tarmoqlarning saqlanib qolishi	~120–180
Xitoy	Markazlashgan strategik model (SAMR)	Tezkor choralar, raqamli gigantlarga nisbatan qat'iy siyosat	Davlat kompaniyalariga nisbatan yumshoq yondashuv	~500 dan ortiq yirik davlat va platforma kompaniyalari
Yaponiya	Muvozanatli institutsional model (JFTC)	Barqaror huquqiy muhit, kartellarga qarshi boy tajriba	Past iqtisodiy o'sish sur'atlari, konservativ bozor muhiti	~200 atrofida
O'zbekiston	O'tish davri va islohot modeli	Islohotlarning jadallashuvi, huquqiy bazaning yangilanishi	Davlat ulushining yuqoriligi, raqobat yetarli darajada rivojlanmagan	~150–200 (tabiiy va ustun mavqeli subyektlar)

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimlari institutsional mustaqillik darajasi va qo'llaniladigan mexanizmlarning xilma-xilligi bilan farqlanadi. AQSh va Buyuk Britaniya modellarida sud-huquqiy yondashuv hamda chuqur iqtisodiy tahlil ustuvor bo'lib, monopol xatti-harakatlarga nisbatan qat'iy va tizimli choralar qo'llaniladi. Yevropa Ittifoqi davlatlari – Fransiya va Italiyada esa raqobat siyosati milliy va umumiy YEI qoidalarining uyg'unligi asosida olib borilib, kartellarga qarshi kurash va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuvlar bozorda nisbatan barqaror va prognoz qilinadigan raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rossiya va Xitoy misolida monopoliyaga qarshi boshqaruvning markazlashgan va strategik modeli ustunlik qilishi kuzatiladi. Ushbu mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotdagi ulushi yuqori bo'lib, monopol yoki ustun mavqega ega korxonalar sonining ko'pligi aynan shu omil bilan izohlanadi. Markazlashgan boshqaruv tezkor qarorlar qabul qilish imkonini bersa-da, ayrim hollarda raqobatni chuqur rivojlantirish va xususiy sektor faolligini oshirishni cheklashi mumkin. Shu sababli mazkur modellar samaradorlik va bozor erkinligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash nuqtayi nazaridan muayyan zaif jihatlarga ega.

O'zbekiston uchun jadval natijalari muhim metodologik xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Mamlakatda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi islohotlar bosqichida bo'lib, davlat ulushining yuqoriligi monopol tuzilmalarning saqlanib qolishiga sabab bo'layotgani ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, institutsional mustaqillikni kuchaytirish, bozorga kirishdagi to'siqlarni kamaytirish hamda iqtisodiy tahlilga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali monopol korxonalar sonini qisqartirish va raqobat muhitini rivojlantirish mumkin. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimining nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda monopol tuzilmalarning iqtisodiy oqibatlarini kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, monopoliyaning mavjudligi bozor mexanizmlarining buzilishiga, resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishiga hamda iste'molchilar farovonligining cheklanishiga olib keladi. Ayniqsa, raqobat bosimining yetarli darajada shakllanmagan sharoitida monopol korxonalar narx belgilash va ishlab chiqarish hajmini ijtimoiy optimal darajadan chetga chiqqan holda belgilash imkoniyatiga ega bo'lib, bu holat iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuviga sabab bo'ladi.



Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimlari institutsional mustaqillik, huquqiy aniqlik va iqtisodiy tahlilga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali samarali faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, o'tish davridagi iqtisodiyotlarda monopol tuzilmalarning saqlanib qolishi ko'pincha davlat ulushining yuqoriligi hamda bozorga kirishdagi institutsional to'siqlar bilan izohlanadi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlil monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zarurligini, ayniqsa raqobatni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish va bozor institutlari rolini oshirish muhimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni umumlashtirib aytganda, raqobat siyosatini amalga oshiruvchi institutlarning mustaqilligini kuchaytirish, qaror qabul qilish jarayonida iqtisodiy tahlil va dalillarga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bozorga kirishdagi ma'muriy va institutsional to'siqlarni bosqichma-bosqich qisqartirish, xususiyl sektor va kichik biznes subyektlari ishtirokini kengaytirish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirish zarur.

Shuningdek, tabiiy va ustun mavqega ega korxonalar faoliyatida shaffoflikni oshirish, tarif va narx siyosatini samaradorlik ko'rsatkichlariga bog'lash hamda bozor konsentratsiyasini baholashda zamonaviy indikatorlardan foydalanish monopoliyaga qarshi boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy ilg'or tajribalarni milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirib joriy etish, ayniqsa raqamli bozorlar sharoitida antimonopoliya tartibga solishni kuchaytirish, uzoq muddatli barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Marshall A. Principles of Economics. London: Macmillan, 1890.
2. Robinson J. The Economics of Imperfect Competition. London: Macmillan, 1933.
3. Samuelson P. A., Nordhaus W. D. Economics. New York: McGraw-Hill Education, 2010.
4. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press, 2008.
5. G'ulomov S. S. Bozor iqtisodiyoti va raqobat nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.
6. Vahobov A. V., Shoha'zamiyov Sh. Sh. Monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Varian H. R. Intermediate Microeconomics: A Modern Approach. New York: W. W. Norton & Company, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>